

1-SINFLARDA “KELAJAK SOATI” MASHG‘ULOTLARIDA “XOTIRA VA QADRLASH” KUNI MAVZUSINI YORITISHNING TARBIYAVIY AHAMIYATI

Abdullayeva Dildora

Namangan viloyati Uchqo‘rg‘on tuman 45-umumiy o‘rta ta‘lim maktabi
boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Email: dildoraabdullayeva699@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.20555943>

Annotatsiya: Maqolada 1-sinflarda “Kelajak soati” mashg‘ulotlari orqali Xotira va qadrlash kuni mavzusini o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga mos tarzda yoritish masalasi tahlil qilinadi. Kichik maktab yoshidagi bolalarda tinchlikni qadrlash, Vatanga muhabbat, tarixiy xotira, kattalarga hurmat va minnatdorlik tuyg‘ularini shakllantirishda tarbiyaviy mashg‘ulotlarning o‘rni ochib beriladi. Maqolada suhbat, savol-javob, rasmga qarab hikoya tuzish, maqollar bilan ishlash va ijodiy topshiriqlardan foydalanish tavsiya etiladi.

Kalit so‘zlar: Xotira va qadrlash kuni, 1-sinf, Kelajak soati, boshlang‘ich ta‘lim, tarbiya, vatanparvarlik, tinchlik, tarixiy xotira

Аннотация: В статье анализируются вопросы освещения темы Дня памяти и почестей на занятиях «Час будущего» в 1-х классах с учетом возрастных особенностей учащихся. Раскрывается роль воспитательных занятий в формировании у младших школьников чувства уважения к миру, любви к Родине, исторической памяти, уважения к старшим и благодарности. Также рекомендуется использование беседы, вопросов и ответов, составления рассказа по рисункам, работы с пословицами и творческих заданий.

Ключевые слова: День памяти и почестей, 1 класс, Час будущего, начальное образование, воспитание, патриотизм, мир, историческая память.

Abstract: *The article analyzes the issue of teaching the theme of the Day of Remembrance and Honor in 1st-grade "Future Hour" activities in accordance with the age characteristics of pupils. It reveals the role of educational activities in developing young learners' appreciation of peace, love for the Motherland, historical memory, respect for elders, and feelings of gratitude. The article also recommends the use of conversations, question-and-answer methods, storytelling based on pictures, working with proverbs, and creative tasks.*

Keywords: *Day of Remembrance and Honor, 1st grade, Future Hour, primary education, upbringing, patriotism, peace, historical memory.*

“Kelajak soati” mashg‘ulotlari umumta’lim maktablarida 2025/2026-o‘quv yilidan boshlab yo‘lga qo‘yildi. Xususan, 2025-yil 2-sentabr kuni yangi o‘quv yilining ilk dars soatlarida “Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun!” shiori ostida “Kelajak soati” darslari tashkil etilishi belgilandi. Keyinchalik ushbu mashg‘ulotlar maktablarda har haftaning dushanba kuni birinchi soatda o‘tkaziladigan ma’naviy ma’rifiy dars sifatida amaliyotga kiritildi. “Kelajak soati”ning asosiy maqsadi o‘quvchilarda Vatanga muhabbat, milliy qadriyatlarga hurmat, tarixiy xotira, ijtimoiy faollik va kelajakka ishonch tuyg‘ularini shakllantirishdan iboratdir. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Kelajak - zamonaviy bilim bilan qurollangan kasb-hunar egalarinikidir”, shu bois yosh avlodni davr bilan hamnafas, ma’naviy yetuk va raqobatbardosh insonlar etib tarbiyalash bugungi ta’limning muhim vazifasidir. Xotira va qadrlash kuni mavzusini “Kelajak soati” orqali yoritish esa 1-sinf o‘quvchilarida tinchlikni qadrlash, keksalarni hurmat qilish va ajdodlar xotirasiga ehtirom ko‘rsatish kabi ezgu fazilatlarni erta yoshdan shakllantirishga xizmat qiladi. Shu jihatdan mazkur mavzu boshlang‘ich ta’limda ma’naviy tarbiyaning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi

Boshlang‘ich ta’lim bola shaxsining ma’naviy, axloqiy va ijtimoiy shakllanishida muhim bosqich hisoblanadi. Ayniqsa, 1-sinf o‘quvchilari maktab hayotiga endigina kirib kelgan bo‘lib, ularda oila, maktab, Vatan, tinchlik, kattalarga hurmat, mehr-oqibat kabi tushunchalar dastlabki tasavvurlar orqali shakllanadi. Shu

sababli “Kelajak soati” mashg‘ulotlari bolalarda nafaqat bilim, balki insoniy fazilatlarni rivojlantirishda ham muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. “Xotira va qadrlash” kuni o‘z mazmuniga ko‘ra o‘tganlarni yod etish, bugungi tinch hayotimizga hissa qo‘shgan insonlarni qadrlash, keksalarga hurmat ko‘rsatish va yosh avlod qalbida tinchlikka mehr uyg‘otish bilan bog‘liqdir. 1-sinf o‘quvchilari uchun ushbu mavzuni murakkab tarixiy ma’lumotlar orqali emas, balki sodda, hayotiy va tarbiyaviy mazmundagi tushunchalar orqali tushuntirish maqsadga muvofiqdir. “Xotira va qadrlash” kuni mavzusini 1-sinf o‘quvchilariga tushuntirishda bolalarning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olish zarur. Kichik maktab yoshidagi bolalar mavhum tushunchalarni to‘liq anglab yetmasligi mumkin. Shu bois “xotira”, “qadrlash”, “tinchlik”, “jasorat”, “hurmat” kabi tushunchalar bolalarga ularning kundalik hayoti bilan bog‘lab tushuntirilishi kerak.

Masalan, “xotira” so‘zini bolalarga “yaxshi insonlarni eslash”, “ular qilgan ezgu ishlarni unutmaslik” deb tushuntirish mumkin. “Qadrlash” esa “kattalarni hurmat qilish”, “ota-ona, buvi-bobo va ustozlarga mehr ko‘rsatish”, “yaxshi insonlarning mehnatini bilish” tarzida izohlanadi. Bunday yondashuv 1-sinf o‘quvchilari uchun mavzuni tushunarli va ta’sirchan qiladi.

Tarbiyaviy nuqtayi nazardan Xotira va qadrlash kuni o‘quvchilar ongida uchta muhim tushunchani shakllantirishga xizmat qiladi. Birinchisi - tarixiy xotira, ya’ni o‘tgan avlodlar hayoti va mehnatini unutmaslik. Ikkinchisi - qadrlash madaniyati, ya’ni yonimizdagi insonlarga mehr, hurmat va e’tibor ko‘rsatish. Uchinchisi - tinchlikni asrash, ya’ni osoyishta hayotning qadriga yetishdir.

“Kelajak soati” fani haftada bir marotaba bir soat, ya’ni 45 daqiqaga mo‘ljallangan. 1-sinflarda “Xotira va qadrlash” kuni mavzusini o‘tishda mashg‘ulot bolalarga og‘ir tarixiy ma’ruza shaklida emas, balki samimiy suhbat, tarbiyaviy hikoya va amaliy topshiriqlar asosida tashkil etilishi lozim.

Suhbat metodi. Suhbat metodi 1-sinf o‘quvchilari uchun eng qulay metodlardan biridir. O‘qituvchi bolalar bilan erkin muloqot qiladi, ularga savollar beradi va javoblarini rag‘batlantiradi. Suhbat davomida bolalar o‘z fikrini aytishga,

boshqalarni tinglashga va mavzuga munosabat bildirishga o'rganadilar. O'qituvchi quyidagi savollar bilan suhbat boshlashi mumkin:

- Tinchlik deganda nimani tushunasiz?
- Buvi va bobolarimizni nima uchun hurmat qilamiz?
- Kattalarga qanday yordam berish mumkin?
- Xotira deganda nimani tushunasiz?
- Qadrlash deganda nima tushuniladi?

Barcha o'quvchilardan o'z fikrlarini eshitiladi va har bir fikr uchun o'qituvchi tomonidan rag'batlantiriladi.

Rasmga qarab hikoya tuzish metodi. Rasmga qarab hikoya tuzish 1-sinf o'quvchilari nutqini rivojlantirish, tasavvurini kengaytirish va mavzuni obrazli idrok etishiga yordam beradi. O'qituvchi doskaga yoki ekranga "Xotira va qadrlash" kuni mazmuniga mos rasm ilishi mumkin. Rasmda maktab o'quvchilari nuroniy boboga gul berayotgani, o'qituvchi bolalar bilan suhbatlashayotgani, gullar, tinch osmon va bayramona muhit tasvirlangan bo'lishi mumkin.





O'qituvchi rasm asosida quyidagi savollarni beradi:

- Rasmda kimlarni ko'ryapsiz?
- Bolalar kimga gul bermoqda?
- Nuroniy insonlar nima uchun hurmat qilinadi?
- Bolalarning yuzida qanday kayfiyat bor?
- Siz bu rasmlarga qanday nom qo'ygan bo'lardingiz?

Shundan so'ng o'quvchilar rasm asosida 3-4 ta sodda gapdan iborat hikoya tuzadilar.

Maqollar bilan ishlash metodi. "Tinchlik - eng katta boylik", "Keksasi bor uyning fayzi bor", "Odobli bola elga manzur", "Kattaga hurmat, kichikka izzat" kabi maqollar o'quvchilarga sodda misollar orqali tushuntiriladi. Bunday maqollar bolalarda hurmat, odob, mehr va tinchlikni qadrlash tuyg'ularini shakllantiradi. O'quvchilarning o'zidan ham qanday maqollar bilishlari so'raladi.

Ijodiy ish metodi. Ijodiy ishlar bolalarning mustaqil fikrlashi va tasavvurini rivojlantiradi. "Xotira va qadrlash" kuni mavzusida rasmga nom qo'yish, rasmga qarab hikoya tuzish, "Men qadrlayman" jumlasini davom ettirish va "Mehr maktubi" kabi topshiriqlardan foydalanish mumkin. Masalan:

- "Men bobomni qadrlayman, chunki ..."

- “Men buvimni qadrlayman, chunki ...”

- “Men tinchlikni qadrlayman, chunki ...”.

Sinfning barcha o‘quvchilaridan fikrlari o‘qituvchi tomonidan so‘rab chiqiladi va so‘nggida barcha fikrlar umumlashtiriladi.

Eng zaruri biror bir metoddan foydalanishdan oldin, 1-sinf o‘quvchilarining yosh xususiyatlarini hisobga olish kerak. 1-sinf o‘quvchilari murakkab tarixiy voqealarni chuqur tushunishga hali tayyor bo‘lmaydi. Ularning tafakkuri asosan obrazli, hissiy va amaliy faoliyat bilan bog‘liq bo‘ladi. Shu sababli mavzu sodda va tushunarli tilda bayon qilinishi, og‘ir tarixiy tafsilotlar berilmasligi, asosiy e‘tibor tinchlik, mehr, hurmat, minnatdorlik va Vatanga muhabbat kabi ijobiy tushunchalarga qaratilishi kerak.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, “Xotira va qadrlash” kuni mavzusini 1-sinflarda “Kelajak soati” mashg‘ulotlari orqali yoritish o‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasida muhim o‘rin tutadi. Ushbu darsda faqat ma’ruza qilish maqsadga muvofiq bo‘lmaydi. Bu mavzu orqali bolalarda tinchlikni qadrlash, kattalarga hurmat, Vatanga muhabbat, mehr-oqibat, minnatdorlik va insoniylik kabi fazilatlar shakllanadi. 1-sinf o‘quvchilari uchun ushbu mavzuni hayotiy misollar, rasmga qarab hikoya tuzish, suhbat, maqol, she’r va ijodiy topshiriqlar orqali tushuntirish samarali hisoblanadi. Iloji bo‘lsa o‘quvchilar bilan amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazilsa yana ham dars qiziqarli bo‘ladi, bizningcha. “Ona Haykal” poyiga gullar qo‘yish yoki maktabga yaqinroq keksa nuroniylarni ziyorat qilish o‘quvchilar onggiga ijobiy ta’sir qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayeva, Sh. A. Pedagogika. Toshkent: Fan va texnologiya, 2011.
2. Hasanboyev, J., To‘raqulov, X., Haydarov, M., Hasanboyeva, O. Pedagogika fanidan izohli lug‘at. Toshkent: Fan va texnologiya, 2009.
3. Mavlonova, R., To‘rayeva, O., Xoliqberdiyev, K. Pedagogika. Toshkent: O‘qituvchi, 2001.

4. Mavlonova, R. A., Rahmonqulova, N. H. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi. Toshkent: Voris-nashriyot, 2013.
5. Nishonova, S. Komil inson tarbiyasi. Toshkent: Istiqlol, 2003.
6. Kun.uz. Maktablarda har hafta dushanba kuni birinchi soati "Kelajak soati" darslari sifatida o'qitiladi. <https://kun.uz/changelang/uz?c=%2F65422266>
7. Gazeta.uz. Maktablarda har haftaning dushanba kuni "Kelajak soati" darslari o'tiladi. <https://www.gazeta.uz/oz/2025/08/27/kelajak-soati/>
8. President.uz. O'zbekiston o'qituvchi va murabbiylariga bayram tabrigi. <https://president.uz/oz/lists/view/8541>